

OILALAI TALABALAR OILASIDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Kamolova Shirin Usarovna
JDPU Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada oilalai talabalar oilasidagi shaxslararo munosabatlarning psixologik ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, talabalar oilasida uchraydigan moddiy qiyinchiliklar, o'qish bilan bog'liq stress holatlari va ularning oilaviy munosabatlarga ta'siri ko'rib chiqilgan. Mavzuda oiladagi iliq hissiy muhitning shaxs kamoloti va oilaviy barqarorlikdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Shaxslararo munosabat, muloqot madaniyati, emotsional yaqinlik, iliq hissiy muhit, ishonch, oilaviy nizolar, psixologik moslashuv, ruhiy barqarorlik, stress holati, yosh oila, motivatsiya, qo'llab-quvvatlash, oilaviy muhit

KIRISH

Hozirgi vaqtda oila modelining o'zgarishi va ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida universitet va oila o'rtasidagi munosabatlar muammosi tarbiya, ta'lim va talaba rivojlanishining ikkita markaziy instituti o'rtasidagi munosabatlar sifatida juda muhim va dolzarbdır.

Muammoli oilali talabalar bilan ishlashning ilmiy asoslangan konseptual modelini ishlab chiqish, oilaviy kommunikatsiyani optimallashtirish, konfliktlarni konstruktiv hal etish hamda psixologik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish zamonaviy psixologiya fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbi mazmunidagi ilmiy asoslar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident farmon va qarorlarida alohida yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" [1]; (2019-yil 8-oktyabr) Ushbu farmonda: talabalarning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish; mustaqil fikrlash, ijtimoiy moslashuv, shaxsiy mas'uliyat, psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish kabi masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ayniqsa, talabaning shaxs sifatida rivojlanishi hamda ta'lim muhiti bilan integratsiyasi ilmiy jihatdan sizning mavzuvingizga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" [2]; (2020-yil 6-noyabr) Mazkur farmonda: yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, talabalarning ma'naviy-psixologik salomatligini mustahkamlash, ta'lim jarayonida shaxsiy rivojlanishni ta'minlash, ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalar ilgari surilgan. Bu



hujjat oilali talabalar hayotidagi psixologik yuklama, ijtimoiy moslashuv va oilaviy mas'uliyat muammolarini tadqiq etishda muhim nazariy asos bo'ladi.

Talabalar oilasi-bu yosh oilalarning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, unda er-xotin bir vaqtning o'zida ham oilaviy, ham ta'limiy faoliyatni olib boradi. Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatdan mustahkam bo'lishi oila barqarorligi, ruhiy muhit va kelajakdagi farovonlik uchun muhim ahamiyatga ega. Talabalar oilasida moddiy qiyinchiliklar, vaqt taqsimoti, mas'uliyat va hissiy zo'riqish kabi omillar munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zaro tushunish va muloqot shaxslararo munosabatlarning eng muhim psixologik asosi-bu samarali muloqotdir. Psixologik moslashuvning muvaffaqiyatli kechishi sabr-toqat, murosaga kelish va o'zaro qo'llab-quvvatlashga bog'liq.

Ochiq va samimiy muloqot oiladagi ishonchni mustahkamlaydi hamda nizolarning oldini oladi.. Ayniqsa, yosh oilalarda va talabalar oilasida iliq hissiy muhit oilaviy barqarorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Oiladagi iliq hissiy muhit shaxslararo munosabatlarning eng muhim psixologik omillaridan biridir.

Mehr, hurmat, ishonch va samimiy muloqotga asoslangan oilada sog'lom ruhiy muhit shakllanadi. Bunday muhit oila a'zolarining baxtli hayot kechirishi, ruhiy barqarorligi va barkamol shaxs bo'lib rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Konfliktlarni boshqarish, har qanday oilada kelishmovchiliklar uchraydi.

Talabalar oilasida ular ko'pincha: moddiy qiyinchilik, o'qishdagi stress, vaqt yetishmasligi sababli yuzaga keladi. Oiladagi iliq hissiy muhit — bu oila a'zolari o'rtasidagi mehr-oqibat, hurmat, ishonch, samimiylik va o'zaro qo'llab-quvvatlashga asoslangan ruhiy holatdir. Bunday muhit oilaning mustahkamligi, oila a'zolarining ruhiy salomatligi hamda sog'lom shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oilalai talabalar oilasidagi shaxslararo munosabatlarning psixologik asoslarini o'rganish bugungi kunning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUNI O'RGANISH

Ilmiy izlanishlardagi zamonaviy tendentsiyalarni o'rganishda, talabalarning qiyin hayot sharoitlarida muammolarni hal qilish strategiyalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati zamonaviy akademik munozaralar kontekstida ayniqsa dolzarb ekanligini ta'kidlash joiz. Psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostika va psixologik maslahatning tashkiliy masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan bo'lishiga qaramay, oilaviy psixologik xizmat masalasi kompleks ijtimoiy-psixologik tadqiqot sifatida atroflicha o'rganilgan

Shunisi e'tiborga loyiqki, biz bunday tadqiqotlar, jumladan, tegishli manbalarni tahliliy ko'rib chiqish, oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlarni tashkil etishga differentsial yondashuvni amalga oshirish uchun keng istiqbollarni ochishi mumkin, deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, ushbu yondashuv talabalarning psixologik farovonligini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kutilmoqda, ayniqsa muammoli talabalarning konseptual psixologik kmpetentlari va oilali talabalarining psixologik holatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar etarlicha o'rganilmagan. Ushbi maqola yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, talabalarning ma'naviy-psixologik salomatligini





mustahkamlash, ta'lim jarayonida shaxsiy rivojlanishni ta'minlash, ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalarga e'tibor qaratiladi.

O'zbekistonda psixologik xizmatni umumiy va oliy ta'limda, mahalla, sog'liqni saqlash, ijtimoiy guruhlar va mehnat jamoalarida tashkil qilinishni takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik masalalari R.A.Abdurasulov, Sh.R.Barotov, D.Sh.Barotova, M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, F.A.Akramova, V.M.Karimova, N.G.Kamilova, Z.T.Nishonova, A.I.Rasulov, B.M.Umarov, Z.A.Rasulova, Sh.M.Sodiqova, N.A.Sog'inov, O'.B.Shamsiev, U.D.Qodirovlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan G.M.Andreeva, V.V.Antipov, L.P.Bogdanova, A.Varga, I.F.Dementeva, T.R.Kirimov, P.R.Novikov, Ye.G.Silyaeva, L.B.Shneyderlar oiladagi shaxslararo munosabatlar, oilaviy nizolarni oldini olishda psixologik xizmatning zarurligi, psixologik maslahatning asosiy talablarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borishgan.

Xorij tadqiqotchilaridan A.Adams, V.Berg, S.T.Billingsley, F.Zimbardo, D.Jodelet, R.Chaldini, K.X.Kaufman, Z.Freyd, L.Williamlar oila bilan bog'liq masalalarini tadqiq etishgan bo'lsa-da, lekin oila ijtimoiy maskanini hayotiy qadriyatlar sirasida ustuvor sifatida qaralmagan.

X.K.Karimovning «O'zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» mavzudagi tadqiqotida o'zbek oilalarida er-xotin o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, er-xotin nizolari qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi kabi masalalar ochib berilgan [75; 142].

Oila mavzusiga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida R.S.Samarovning «Tojik oilasida er-xotin nizolarining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari» mavzusidagi dissertatsiyasini keltirish mumkin, tojik oilalaridagi nizolarning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari, sabablari, shakllari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan [115; 36-39 b.].

D.Sh.Barotovanning «Mahallada aholining turli guruhlariga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy psixologik xizmat mexanizmlari» mavzusidagi dissertatsiya ishining ilmiy yangiligida mahalla aholisiga malakali psixologik xizmat ko'rsatishni tashkil qilishda ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omil va sabablarni oldini olish muhim ekanligi qayd etilgan [42].

Hozirgi dolzarb masalalar qatorida, oliy ta'limda taxsil olayotgan talabalarga muammolarni hal qilish xatti-harakatlarini o'rganishning psixologik jihatlarini ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning alohida mavzusi sifatida o'rganish zarurati mavjud.

TADDIQOT OB'EKTl VA FOYDALANILGAN USULLAR

Muammolari bo'lgan talabalarning muammolarni hal qilish va xulq-atvorini o'rganishning psixologik jihatlarini Tadqiqot Jizzax davlat pedagogika universiteti 133 nafar talaba va Qo'qon davlat pedagogika universitetida turmushga chiqqan oilali 95 nafar talaba, Qarshi davlat universitetining 117 nafar talaba muammoli oilalarga psixologik xizmat olib borishning konseptual va psixologik komponentlari (oilali talabalar misolida) mavzusi asosida oilali talabalarning xulq-atvorining ijtimoiy va psixologik xususiyatlari va 21-24 yoshdagi talabaning muammolarni yengish xatti-





harakatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rgandi. 345 nafar talabalar usullarning ishonchliligi va asoslilikini namoyish etish uchun sinov tadqiqotlarida ishtirok etdi.

Jami 345 nafar talaba ishtirok etdi. Ushbu metodologiya asosida yuqoridagi turlarning har biri insonda qay darajada namoyon bo'lishini aniqlash mumkin. Ushbu metodologiyalar natijalari shuni ko'rsatadiki, muammoli oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishning konseptual va psixologik komponentlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, oiladagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni optimallashtirishga qaratilgan psixologik xizmat modelini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini aniqlash;

- Oiladagi nizoli vaziyatlar, emotsional zo'riqish, kommunikativ to'siqlar va psixologik inqirozlarni keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilish, muammoli oilalarda ota-ona va farzand munosabatlari, shaxslararo muloqot madaniyati hamda oilaviy qadriyatlarining psixologik xususiyatlarini diagnostika qilish; insonning shaxsiyati qanchalik ko'p shakllansa, u bu kasbga shunchalik ko'p jalb qilinishi, muammoli oilalar bilan ishlashga yo'naltirilgan psixologik xizmatning konseptual modeli, mexanizmlari va psixologik komponentlarini ishlab chiqishga qaratildi. Tadqiqotda suhbat, kuzatishlar, muallifning so'rovnomasi, shuningdek, V.V.Stolin, T.M.Ramanov, G.G.Butenkolarning "Oilaviy hayotdan qoniqish so'rovnomasi", K.N.Tomasning shaxs so'rovnomasi, Rojers-Daymond so'rovnomasi shaxsning ijtimoiy muhitga qanchalik darajada moslasha olishini aniqlash metodikasi, Karl Rojers va Rozalind Daymond "Ijtimoiy-psixologik moslashganlik xarakteristikalarini o'rganish metodikasi, J.Teylorning xavotir namoyon bo'lish shkalasi bu shaxsdagi xavotir darajasini aniqlash uchun mo'ljallangan psixodiagnostik testlaridan foydalanilgan.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Talabalar o'rtasida hayot sharoitlari kontekstida qiyinchiliklarni yengish strategiyalarini tanlashdagi talabalarning qiyin xayot vaziyatlaridagi hulq atvor xususiyatlari, talabalar o'rtasida "do'stlar"dan ijtimoiy yordamni idrok etish "ijtimoiy yordam izlash" strategiyasidan foydalanishni rag'batlantiradi, uning yo'qligi "o'zini o'zi izolyatsiya qilishni" rag'batlantiradi, muammoli talabalar o'rtasida "sherik"dan qo'llab-quvvatlashni idrok etish "xayol"ni, oilaviy qo'llab-quvvatlash o'rtasida "ijobiy narsalarga e'tibor qaratish" strategiyasini rag'batlantiradi, odatiy talabalar o'rtasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning barcha komponentlarini ijobiy idrok etish "ijobiy narsalarga e'tibor qaratishni" rag'batlantiradi va salbiy idroklar "o'zini o'zi izolyatsiya qilishni" rag'batlantiradi;

Oilali talabalarda shaxslararo munosabatlardagi hulq-atvor uslublarini, muloqot jarayonidagi yo'nalishlarini va nizoli vaziyatlardan chiqish strategiyalari o'rganildi. O'rganishlarga ko'ra, shaxsning xatti-harakati ob'ektiv dunyoga emas, balki uning o'sha dunyoni qanday tushunishi va baholashiga (subyektiv tasavvuriga) asoslanadi.

Talabalarni yaxshiroq tushunish uchun faqat savol-javob emas, balki shaxsiy xatlar, kundaliklar, tarjimai xollar va hayotiy hikoyalar kabi subyektiv materiallarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

V.V.Stolin, T.M.Ramanov, G.G.Butenkolarning "Oilaviy hayotdan qoniqish so'rovnomasi" turmushga qurgan talaba yoshlarning nikohdan qoniqish darajasini,





shuningdek, turmush o'rtog'i fikrlarining izchilligini ekspress diagnostika qilish, so'rovnomaga o'zini va sherigini idrok etish, fikrlash, baholashlar, nikohdagi munosabatlarga ta'sir qilish muammolari va natijalarni talqin qilishda foydalanildi. talabalarida turmush o'rtog'ining yutuqlaridan quvonish va qiyinchiliklarda (ish, sog'liq) hissiy elkadosh bo'lish, nizolarni konstruktiv hal etish: Muammolarni shaxsiyatga o'tmasdan, "Men-xabarlar" (o'z hissiyotlari haqida gapirish) orqali hal qilish, turmush o'rtog'ining shaxsiy makoni va rivojlanishiga imkon berish, o'zini o'zi ro'yobga chiqarishni qo'llab-quvvatlash, hamda yosh oilalar uchun oilaviy hayotga tayyorlash, nizolarni oldini olish bo'yicha psixoprofilaktik ishlar olib borildi.

Rojers-Daymond so'rovnomasi shaxsning ijtimoiy muhitga qanchalik darajada moslasha olishini aniqlashda eng ishonchli metodikalardan biri hisoblanadi. Bu metodika shaxsning o'ziga bahosi, boshqalar bilan munosabati, hissiy qulayligi va ijtimoiy moslashuvi darajasini kompleks baholash uchun Qo'qon davlat universiteti talabalarida Muammoli oilalarga psixologik xizmat olib borishning konseptual va psixologik komponentlarini ilmiy tadqiq qilishda foydalanildi.

J.Teylorning xavotir namoyon bo'lish shkalasi bu shaxsdagi xavotir darajasini aniqlash uchun mo'ljallangan psixodiagnostik testdir. Bu test talabalar yoki stressli vaziyatdagi insonlarning ruhiy holatini aniqlash uchun keng qo'llaniladi. Muammoli oilalarga psixologik xizmat olib borishning konseptual va psixologik komponentlarini o'rganish jarayonida talabalarning hozirgi holatida xavotir darajasi qanchalik namoyon bo'layotganini aniqlashga harakat qildik. o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, talabalarda muammolarga yechim izlashga e'tibor qaratish, uyqu va dam olish vaqtini to'g'ri taqsimlash, axborot oqimini cheklash, ijobiy emotsiyalarni ko'paytirish, o'zining ruhiy holatini tahlil qilib turish, zarur bo'lsa, motivatsiyani oshirish, hamda J.Teylorning xavotir shkalasi inson ruhiyatini to'g'ri baholash va ruxiy salomatlikni saqlash bo'yicha samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun pedagogik-psixologik tavsiyalar berildi.

Shunday qilib, qiyin hayot sharoitidagi talabalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar talabalar hayotining ham ijtimoiy-psixologik, ham sog'liq bilan bog'liq jihatlarini hisobga oladigan yanada maqsadli, inklyuziv ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish uchun yo'l ochadi. Ushbu istiqbolli yechimlarni amalga oshirish va ularning samaradorligini ta'minlash yuqori sifatli psixologik tadqiqotlar va qiyin hayot sharoitlariga tushib qolgan shaxslarning psixologik farovonligida amaliyotchi psixologlarning faol ishtirokini talab qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, shunday deyishimiz mumkinki, Talabalar oilasidagi shaxslararo munosabatlarning psixologik asosini o'zaro tushunish, ishonch, hurmat, emotsional yaqinlik va samarali muloqot tashkil etadi. Yosh oilalarda uchraydigan qiyinchiliklarni yengishda psixologik yetuklik va bir-birini qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynaydi. Sog'lom psixologik muhit esa oilaning mustahkamligi va kelajakdagi baxtli hayotning asosidir.

Muammoli talabalarning kuchli istaklari, ularga to'siqlarni yengib o'tishga imkon beradi deb hisoblaydigan yuqori foizini hisobga olsak, bu guruh sezilarli





salohiyatga ega, bu ko'pincha tashqi to'siqlar va cheklovlar tufayli kam baholanadi. Bu ularning salohiyatini maksimal darajada oshiradigan sharoitlarni yaratish, shuningdek, ushbu to'siqlarni yengib o'tish uchun etarli darajada qo'llab-quvvatlash va resurslarni taqdim etish muhimligini ta'kidlaydi.

Oilalar bilan ishlashda amaliyotchi psixologlar, mahalla mutaxassislarini oila a'zolarining yosh davri psixologiyasi, shaxsning inqirozli yosh davrlari, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar psixologiyasiga oid zarur bilimlar bilan qurollantirib borish kerak.

Yoshlarni oila qurgunga qadar psixolog, shifokor va xuquqshunos maslahatiga yo'naltirishni tizimli yo'lga qo'yish ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida
3. Karimov X.K. O'zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent: 1994. - 142 b.
4. Samarov R. Xizmat faoliyati va oilaviy munosabatlar psixologiyasi /Harbiy psixologiya va pedagogikaning ayrim muammolari: Ilmiy maqolalar to'plami, 1-qism. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, SOHAQMBYu. – Samarqand, 2000. - B. 36-39.
5. Barotova D.Sh. Aholining turli qatlamlariga psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari // Psixologiya. 2016. - № 2 — B. 73-77.

